

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ARTIMIYALARDAGI EKG O'ZGARISHLAR

Karimboyeva Azima

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

3-kurs davolash ishi fakulteti talabasi

Imiy rahbar: Ikromova Aziza

Aannotatsiya:

ushbu maqolada artimiyalardagi ekg o'zgarishlar, elektrokardiogrammalarning salomatlikdagi o'rni va artimiyalar sifatlari xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Elektrokardiogramma, EKG, yurak kasalliklari, yurak muskuli.

Аннотация: В этой статье рассматриваются изменения ЭКГ при артимиях, роль электрокардиограмм в здоровье и особенности качества Артимий.

Ключевые слова: электрокардиограмма, ЭКГ, болезни сердца, сердечная мышца.

Aannotation: this article provides opinions on ECG changes in artimia, the role of electrocardiograms in health, and the qualities of artimias.

Keywords: electrocardiogram, ECG, heart disease, heart muscle.

KIRISH

Elektrokardiogramma — bu yurak muskuli ishlayotganida hosil bo'lgan elektr impulslarini aks ettiruvchi egri chiziq. Elektrokardiogramma elektrokardiograf yordamida qog'ozga yoki fotoplyonkaga tushiriladi. Butun gavdaga tarqaluvchi yurak toklari (harakat toklari) EKGsi gavdaning turli qismlari (ko'krak qafasi, qo'l va oyoqlar)ga o'rnatilgan va elektrokardiografga ulangan elektrodlar bilan yozib olinadi. Hozirgi zamon texnikasi yutuqlari tekshirilayotgan odam ancha uzoq masofada bo'lsa ham tele- yoki radiouzatkichlar yordamida EKGni yozib oladigan apparatlarni yaratish imkoniyatiga ega. Bunday usullar og'ir jismoniy sinovlarda, sportchilar, kosmo- navtlar va boshqalarning yurak faoliyatini kuzatish imkonini beradi. Sog'lom odamlar EKGsi gavda tuzilishi, yosh va boshqalarga bog'liq.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ammo normal EKGda har doim yurak muskulining ketma- ket qo'zg'alishini aks ettiruvchi tishchalar va intervallar (oraliq- lar)ni farq qilish mumkin. Turli kasalliklarda EKG tishchalarining o'lchami, ularning davom etishi va yo'nalishi, intervallar (segment- lar)ning davom etishi hamda joylashishi anchagina o'zgaradi. EKG yordamida yurak ritmining turli o'zgarishlari, yurakning ishemik kasalligi, miokard infarktining xarakteri va bosqichlari aniqlanadi. Yurak kasalliklarini EKG yordamida diagnostika qilish boshqa tekshirish usullari ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Elektrokardiogrammani yozishda uch standart va oltita ko'krak ulanishlaridan foydalaniladi. I standart ulanishda elektrokardiogramma elektr toklari ulanish holatida o'ng va chap qo'ldan yozib olinadi. IIsida elektr toki, o'ng qo'l va chap oyoqdan, III sida chap qo'l va chap oyoqdan yozib olinadi. Elektrokardiogrammani ko'krak ulanishida yozib olishda harakat toki bevosita yurak sohasida olinadi. Elektrodning biri o'ng qo'lga bog'lanib, hamma ko'krak ulanishlari yozib olinmaguncha yechilmaydi. Ikkinchi ko'krak elektrodi ko'krak qafasining quyidagi nuqtalariga o'rnatiladi. To'shning o'ng qirrasida to'rtinchi qovurg'a oraliq'iga—birinchi ko'krak ulanishi (CR1 yoki V1), beshinchi qovurg'a oraliq'ida to'shning chap qirrasida — ikkinchi ko'krak ulanishi (CR2 yoki V2); keyinchalik ko'krak elektrodi beshinchi qovurg'a oraliq'idagi ma'lum tanish chiziq'lar bo'ylab har doim olib qo'yib turiladi, shunday qilib, elektrodning chap to'sholdi chizig'ida joylashgani uchinchi ulanish (CR3 yoki V3), chap o'rta o'mrov chizig'i bo'ylab joylashgani to'rtinchi ulanish (CR4 yoki V4), old qo'ltiq chizig'i bo'ylab joylashgani beshinchi ulanish (CR5 yoki V5) va o'rta qo'ltiq chizig'i bo'ylab joylashgani oltinchi ulanish (CR6 yoki V6) bo'ladi. Yurak faoliyati toklarining elektrokardiograf yordamida yozib olingan egri chizig'i elektrokardiogramma deb ataladi. Normal elektrokardiogramma yuqoriga yo'nalgan uch (B1R va T) va pastga yo'nalgan ikki (Q va S) tishchaga ega bo'ladi. P tishi yurak bo'l- malarida sodir bo'ladigan elektr hodisalarni aks ettiradi. QRS va T tishchalari qorincha kompleksini tashkil etadi. Bunda QRS tishchalari elektrokardiogrammada qo'zg'alish to'lqini qorinchalar bo'ylab tarqalgan vaqtida yozilsa, T tishcha to'lqinning tamom bo'lgan vaqtini ko'rsatadi. P tishchasi bilan Q tishi orasida masofa bor, bu masofa P— Q intervali deb ataladi. S tishchasi bilan T tishchasi orasida esa S—T intervali bor. Elektro-kardiogramma tishchalarining kattaligi, yo'nalishi va xarakteri turli sabablarga bog'liq bo'ladi. Normal elektrokardiogramma eng katta tishchalar ikkinchi ulanishda, undan sal kichikrog'i birinchi ulanishda va eng kichkinasi uchinchi ulanishda kuzatiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ASOSIY QISM

Yurak urish maromining buzilishi – aritmiya nomi bilan yuritiladi. Tibbiyotda mazkur hodisaning alohida kasallik sifatidagi ko`rinishi hamda sog`lom insonlarda uchraydigan turlari mavjud. Aslini olganda, yurak 24 soat davomida 100 000 martadan ko`proq qisqaradi. Aritmiya so`zi yunoncha aritmos («a» - yo`q, «ritmos» – marom) so`zidan olingan bo`lib, barcha yurak maromi buzilishlari uchun umumiy atama hisoblanadi. Ilgari yurak qon-tomir xastaliklari deyilganida 40-50 yoshdan oshgan insonlarni tasavvur qilganmiz. Bugunga kelib esa 25-30 yoshlilar orasida ham yurak bilan bog`liq kasalliklar uchrab turibdi. Sizningcha buning sababi nima? Ro`yxat avvalini kamharakatlilik boshlab bersa, uning davomini ruhiy zo`riqish (ayniqsa, ayollarda), hayvon yog`lari ko`p bo`lgan mahsulotlarni tez-tez iste`mol qilish, zararli odatlar, tamaki va spirtli ichimliklar uzaytiradi. Shundan kelib chiqib, yurak qon–tomir kasalliklari yosh tanlamayapti, desak xato bo`lmaydi. Bu fikrning tasdig`ini aritmiya xastaligida ham ko`rishimiz mumkin. Har bir inson hayoti davomida bir marta bo`lsa ham yurak urishi maromining o`zgarishini his qilib ko`radi. Keling, bu qanday sodir bo`lishini eslab ko`ramiz. Tasavvur qiling, ertaga imtihon! «Sinovdan o`ta olamanmi yoki yo`q?» deya ko`zingizga uyqu kelmaydi. Ertasiga esa qattiq hayajonlanganingizdan yonog`ingizga qizilliq yugurib, xayollaringiz tarqoqlashadi. Diqqatni jamlashga urinasiz, ammo yuragingizning shiddat bilan urayotgani tag`in e`tiboringizni chalg`itadi. Bu paytdagi yurak urishining tezlashishi emosional holatdagi o`zgarishlarga bog`liq. Tinchlanganingizdan so`ng yurak urishi ham me`yoriy ko`rinishiga keladi. Ba`zilar muhim yig`ilishlar oldidan hissiyotlarga beriladi, turmushga chiqmagan qizlarda uchrashuvga tayyorgarlik ko`rish yoki to`ydan bir necha kun oldin yurak maromi o`zgarishi kuzatiladi. Bu ham hayajonlanish tufayli kelib chiqqan holatdir. Yugurganda, yuqori qavatga ko`tarilishda yoki hovliqib ish qilinganida yurak tezroq ura boshlaydi. Bu sinusli taxikardiyaning sog`lom kishilarda uchraydigan ko`rinishi. Jismoniy holat barqarorlashgach, yurak urishi me`yorga keladi. Kamqonlik, qalqonsimon bez faoliyatidagi buzilishlar asoratida kelib chiqqan sinusli taxikardiya esa asosiy kasallikka hamrohlik qilishi bilan qayd etiladi. Yurak urishining 60 tadan kam bo`lishi, ya`ni sinusli brokardiya ham sog`lom insonlarda uchraydi. Misol uchun orom olayotganda. Bu paytda tanamiz jismoniy harakatlardan xoli bo`ladi. Shunga muvofiq, yurak urishi ham sekinlashishi mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

XULOSA

Yurakdagi o`zgarishlar hamisha ham og`riq bilan ifodalanmaydi. Holsizlik, yuqoriga ko`tarilganda xansirash, qon bosimining ortishi yoki kamayishida yuz beradigan o`zgarishlarda hamda yurak urishiga ahamiyat bering. Mazkur jarayonlar tashxis qo`yishda asqotishi mumkin. Agar yurak urishi izidan chiqayotganini sezangiz albatta mutaxassisga uchrashing. Bilib–bilmay tinchlantiruvchi vositalar yoki biror bir dori preparatini qabul qilish mumkin emas. Yurak aritmiyasiga tashxis qo`yishda EKG tahlili, murakkab aritmiyalarda esa 24 soat davomida yurak faoliyatini yozib boruvchi Xolter bo`yicha EKG tekshiruvlari o`tkaziladi.

Hayot uchun xavfli aritmiyalari ikki usulda davolanadi. Birinchi turi konservativ muolaja bo`lib, har bir bemor uchun antiaritmik preparatlar buyuriladi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, har bir aritmiya turi uchun o`z preparati mavjud. Dori vositalarini muntazam qabul qilishdan xoli bo`lishning chorasi esa jarrohlik amaliyotidir. Qo`shimcha yo`l bilan chaqiriladigan bo`lmachalar aritmiyasi va xilpirovchi aritmiyada kateterli radiochastotali ablyasiya (distruksiya) usuli qo`llaniladi. Bunda oyoqdan o`tadigan katta vena qon tomiri orqali kateter naychasi yurak ichiga kirib boradi. Bemor mahalliy xushsizlantirish usuli yordamida uxlatiladi. Amaliyot yurakni ochmagan holda, monitorda muolaja qilinayotgan a`zoni kuzatish orqali bajariladi. Kateter uchida bir vaqtning o`zida ham issiqlik ham radio chastota bo`lib, qo`shimcha yo`ldagi o`tkazuvchanlik funksiyasi saqlangan hujayralar distruksiya qilinadi. Xilpirovchi aritmiyadagi jarrohlik amaliyoti ham kateter yordamida bajarilib, faqat murakkabroq usulda yondashilishi bilan farq qiladi. Aritmiya o`z vaqtida davolanmasa, kattalarda qon aylanishi etishmovchiligi hisobidan kelib chiqqan infarkt yoki insult, yoshlarda esa kutilmaganda xushidan ketish kabi asoratlarga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Т.В.Ащеулова, О.Н.Ковалева, Н.А.Сафаргалина-Корнилова. Электрокардиограмма при нарушении автоматизма и возбудимости миокарда (аритмии сердца). Харьков ХНМУ 2016.
2. Дощицин, В. Л. Электрокардиографическая дифференциальная диагностика / В. Л. Дощицин. – Москва: МЕДпресс-информ, 2016. – 232 с. – Текст: непосредственный.
3. Киякбаев, Г. К. Аритмии сердца. Основы электрофизиологии, диагностика, лечение и современные рекомендации: 01.11.2022).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. Орлов, В. Н. Руководство по электрокардиографии / В. Н. Орлов. – Москва: Медицинское информационное агентство, 2017. –560 с. – Текст: непосредственный.
5. <https://uz.medicinehelpful.com/17212300-cardiac-arrhythmia-causes-symptoms-and-treatment>.
6. z.eagha.org/arrhythmias-96.
7. <https://znanio.ru/media/aritmialar-kelib-chiqish-sabalari-tasnifi-va-davolash-usullari-2818285>.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES